

O`ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGI-TARIXIMIZ KO`ZGUSI

Ro`zimurodova Sitora Maqsiddin qizi

*O`zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi
2-bosqich magistranti*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xalq og`zaki ijodining rivojlanish ildizlari, folklorshunoslikning o`ziga xos xususiyatlari va tarixiy taraqqiyoti haqida bahs yuritiladi. Shuningdek, millatimizning eng qadimiy milliy qadriyatlari va tafakkur mahsuli bo`lmish poetik merosi o`rganiladi. Sharq va g`arb mamlakatlarida folklorshunoslikning shakllanishi va hozirgi kunda folklor namunalarining o`rganilishiga ahamiyat berilgan.*

Kalit so`zlar. *Folklorshunoslik, so`z san`ati, doston, afsona, g`arb folklorshunosligi, mif va asotrlar, afsona,*

KIRISH

Bilamizki, xalq og`azaki ijodi milliy qadriyatlarimiz ,xalqimizning bitmas- tunganmas tarixi haqida jonli tarzda so`zlaydi. Ma`lumki, og`zaki ijodimiz yozma manbalardan ancha ilgari paydo bo`lgan va hozirgi kunga qadar davom ettirilib kelinmoqda. Xalqimizning jahon xalqlari orasidagi tutgan o`rni, umuminsoniy an`analarimiz, insoniyat sivilizatsiyasiga qo`shgan hissasi, eng avvalo, o`zbek xalq og`zaki ijodida yaqqol ko`rinadi. Mustaqilligimiz sharofati bilan xalq og`zaki ijodiga bo`lgan e`tibor yanada kuchaydi. Bunga misol taqriqasida birgina „Alpomish“ dostonining ming yilligi keng miqiyosda nishonlanib, „O`zbekiston xalq baxshisi“ unvoni ta`sis etilganligini ko`rishimiz mumkin.

Folklorshunoslik so`z san`atiga asoslangan bir qancha janrlar tizimidan tashkil topgan. Ularga quyidagilarni keltirishimiz mumkin: doston, qissa, rivoyat, miflar, afsonlar, maqol, matal, latifa, qo`shiq, xalq o`yinlari, olqishlar, qarg`ishlar kabilardan tashkil topgan. Bugungi kunda ham folklorshunosligimiz olimlarimiz tomonidan o`rganilib kelinmoqda. Jonkuyar olimlarimizdan E. Musurmonov, T. Mirzayev, O. Safarov, O. Madayev, Sh. Turdimov, M. Jo`rayev, J. Eshonqulov kabi folklorshunoslarimiz tomonidan ko`plab qo`llanmalar yaratildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADALOGIYASI

Inson salohiyatini, ma`naviyatini rivojlantirishda folklorning o`rni alohida ahamiyat kasb etar ekan, aslida bu jarayon go`daklarning tug`ilishi bilanoq boshlanadi. Momolarimiz, onalarimiz aytgan sehrli allalar, ertaklar, qo`shiq, tez aytish va topishmoqlar bola tili, dunyoqarashing shakllanishiga yordam beradi. Xalq og`zaki ijodini o`rganish qadimgi davrlarga borib taqaladi .M. Koshg`ariyning „Devoni lug`otit - turk“ asari, Yusuf hos Hojibning „Qutadg`u bilig“ asari Ahmad Yugnakiyning „Hibbat ul haqoyiq“ asarlarida



hamda Gulxaniyning „Zarbulmasal“ asarlarida xalqimizning turmush tarzi, ijtimoiy muhiti, mehnat sharoiti, ogʻzaki adabiyotning shakllanishi haqida obrazli qilib soʻzlanadi. Xuddi shunday gʻarb adabiyotiga nazar soladigan boʻlsak, Gomerning „Illiada“ va „Odessiya“ dostonlari, Aristotel hamda Platon asarlarida qadimgi yunon va rim mif, asotir, balladalari keltirilganligiga guvoh boʻlamiz.

Bugungi kunga qadar bir qancha folklorshunos olimlarimiz tomonidan ilmiy tatqiqodlar, oʻquv qoʻllanmalar, monografiyalar, darsliklar yaratilib kelinmoqda. Xususan, 2021- yilda T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Joʻrayev, J.Eshonqulov, A.Tilavovlarning „Oʻzbek folklori“ darsligi, 2017- yilda M.Joʻrayev, J.Eshonqulovlarning „Folklorshunoslikka kirish“, Moʻminjon Sulaymonovning „Oʻzbek folklori“ uslubiy qoʻllanmasi kabi asarlar yaratdilar. Olimlarimiz oʻz asarlarida turkiy xalqlarning xalq ogʻzaki ijodi va mifik qarashlarini, shuningdek, millatimizning ogʻzaki ijodimizga boy tarixini yoritib berganlar. Bu borada yosh ijodkorlarimiz ham oʻz ilmiy ishlari hamda maqolalari orqali merosimizni boyitishga oʻz hissalarini qoʻshmoqdalar. Shular jumlasidan, Buxoro pedagogika instituti talabasi Amanov Ulugʻmurodning „Oʻzbek folklorshunosligining ilmiy-nazariy, amaliy yoʻnalishlari haqida mulohazalar“ nomli maqolasi, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti oʻqituvchisi Nurkeldi Jarasboyevning „Oʻzbek folklorshunosligi, tarixi va uning adabiyotdagi oʻrni“ maqolasi bilan katta hissa qoʻshdilar. Xalq ogʻzaki ijodi adabiyotning bir turi boʻlib, hozirgi adabiyotimizda „Folklorshunoslik“ deb yuritiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Folklorshunoslik ildizlari ancha qadimgi davrlarga borib taqaladi. Qomusiy olimimiz Mahmud Koshgʻariy oʻzining „Devonu lugʻatit turk“ asarida xalq ogʻzaki ijodining goʻzal namunalarini keltirib, asarda 300 oʻrinda ehtiyotkorlik va tadbirkorlik, vafodorlik, odoblilik va tarbiyaviylik, inson qadr-qimmatini, yaxshilik va yomonlik mavzularida maqol va matallar keltirib oʻtadi. Ushbu asarda „Yil hisobi toʻgʻrisida“gi afsona, „Oltin qon“ afsonasi, Xudxur viloyatiga nom qoʻyilishi haqidagi afsona, chigil qabilasiga Iskandar Zulqarnayn nom qoʻygani haqida afsonalar oʻrin olgan. Asarda keltirilgan maqolalar hozirgi kunda ham qoʻllaniladi yoki bir qanchasini muqobil variantlarini koʻrishimiz mumkin. Quvonarlisi shundaki, mohiyat „Devonu lugʻatit turk“ asaridan olingan desak mubolagʻa boʻlmaydi. Asardagi bazi maqollarni koʻrib chiqamiz va hozirgi kunda qanday ahamiyat kasb etishi haqida mulohaza yuritamiz. Maqol:

Qargʻa qarisin kim bilir

Kishi alasin kim tapar

Bu yerda qargʻaning yoshidan qarisini kim ayira oladi, kishining koʻnglini kim bila oladi degan mazmun bor. Tashqi qiyofasi bir xil boʻlgan qargʻalarning yosh-u qarilarini ajrata olmaganimiz singari insonlarning qalbida qanday oʻy-xayollari, his-tuygʻulari bor ekanligini bilib boʻlmaydi.



Maqol:

Tuzun birla urish

Utun birla terishma

Yuqoridagi maqolda yumshoq odam bilan olish, u sendan yengilishi mumkin, qattiq yuzli odam bilan olishma u seni yengadi degan ma'no anglashiladi. Bundan ko'rinadiki, ko'ngli toza, ta'sirlanuvchan, muloyim odam har qanday vaziyatda yengilishi mumkin, ammo xasis, ziqna inson bilan qancha kurashsang ham befoydadir demoqchi.

Xuddi shuning kabi XVIII asrning oxirlarida ijod qilgan o'zbek mumtoz shoiri Gulxaniyning „Zarbulmasal“ asarida ham maqollarning eng go'zal namunalari joy olgan. Asarda 400 ga yaqin maqol o'z o'rnida qo'llaniladi va bu holat asarning tasvir vositalari bilan yanada boyishiga, badiiy tilning sodda va tushunarli bolishiga zamin yaratadi. Bu maqollar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda xalq orasida qo'llanilib kelinmoqda. Quyida asarda keltirilgan maqollarga namunalar keltiramiz.

„Oz oshim g'avg'osiz boshim“ maqoli orqali bazi bir kishilar borki, foydasi tegadigan ishga ham yordam bermasdan, tinchligini qochirmaslik uchun o'z mafaatini o'ylab yaqinlashmaydilar. Hozirgi kunda ushbu maqolning „Och qornim-tinch qulog'im“ shakli qo'llanilib ayni ma'noni ifodalab keladi.

„Ayron tilab kelsang, chelagingni yashirma“ maqolini oladigan bo'lsak, nimagadir erishmoqchi bo'lsang, maqsadni aniq qilish kerakligiga ishora qilinmoqda.

Yuqorida folklorshunoslikning bir bo'lagi bo'lgan maqollar bilan tanishib chiqdik. Xususan folklorshunoslikda mif, afsona, rivoyat kabi tushunchlar bir-biriga o'xshasa-da orasida farqli jihatalari bor ekanligini ko'rishimiz mumkin. 2021- yilda T. Mirzayev, Sh. Turdimov, M. Jo'rayev, J. Eshonqulov, A. Tilavovlarning „O'zbek folklori“ kitobida miflar haqida shunday deydi: „Mif - qadimgi odamning voqelikka bo'lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasidir“ [1;25] kabi tushunchani ilgari suradi. Afsona va rivoyatlar miflardan faqrli ravishda hayotga yaqinligi bilan ajralib turadi. Tarixiy rivoyatlarda Shiroq, To'maris, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi kabi yurt mustaqilligi uchun kurash olib borgan ajdodlarimiz haqidagi ham keltirilgan.

XULOSA

Xalq og'zaki poetik ijodi millatimiz, diyorimiz, tarixi haqida jonli tarzda so'zlaydi. O'zbek xalqi ming yillar davomida yaratgan, milliy merosimiz hisoblangan folklorshunoslik namunalari har doim yurtimiz ravnaqi, vatanimiz farovonligi uchun o'chmas xazina bo'lib xizmat qiladi. Biz yoshlar bu merosni kelajak avlodga yetkazishimiz ham xalq og'zaki ijodining boyishiga o'z hissamizni qo'shmog'imiz darkor. Xalq og'zaki ijodi katta-yu kichik va yosh-u qari uchun ma'naviyat ozuqasi hisoblanadi. Qolaversa, folklorshunosligimizda ota-bobolarimiz yaratgan hikmatli so'zlar, ertak-u rivoyatlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.



ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Mirzayev.T, Turdimov.Sh, Jo`rayev.M, Eshonqulov.J, Tilavov.A larning O`zbek folklori.-Toshkent. <<MALIK PRINT CO>>,2021
2. M.Koshg`ariy „Devonu lug`atit turk” S.M.Mutallibov.Tom I II III.-Toshkent,1960-1963
3. Adabiyot majmua. II kitob,Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o`quvchilari uchun.-Toshkent,2015
4. Jo`rayev.M, Eshonqulov. J larning „Folklorshunoslikka kirish”.-Toshkent,2017

